

Shavqiyeva Maftuna Salimboy qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

Mahsudova Dilmura Abdurahob qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada neologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari, neologizm tushunchasi, uning turlari hamda neologizmlarni tarjima qilish masalalari ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *neologizmlar, qisqartma, abreviatura, akronim, konversiya.*

ОСОБЕННОСТИ НЕОЛОГИЗМОВ И ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА

Аннотация: *В статье рассматривается проблема изучения основных особенностей неологизмов, понятия неологизма, его видов, функций и вопросов перевода неологизмов.*

Ключевые слова: *неологизмы, аббревиатура, аббревиатура, конверсия.*

PECULIARITIES OF NEOLOGISMS AND TRANSLATION PROBLEMS

Abstract: *The article deals with the problem of studying of the main peculiar features of the neologisms, the notion of the neologism, its types, functions and the translation issues of neologisms.*

Key words: *neologisms, abbreviation, acronym, conversion.*

Yangi tushuncha va atamalar leksikamizga kirib keladi. Bunday so'zlar sirasiga neologizmlarni misol qilishimiz mumkin. Tarjima jaroyinida neologizmlar ham muhim o'rinni egallaydi. Negaki ularni tarjima qilish davomida tarjimon ba'zi bir qiyinchiliklarga uchraydi.

Yillar davomida yangi tushuncha va so'zlar paydo bo'lishi hamda ulardan foydalanish bu tabiiy holatdir. Neologizmlar jamiyatning rivojlanishi, yangi tushunchalarning kirib kelishi tufayli tilda yangi so'zlarning paydo bo'lishi natijasida muloqotga kirib kelgan. Yangi tushunchalar, neologizmlarni tarjima qilish muammolari tarjima amaliyotida asosiy o'rinni egallaydi. "Neologizm" tushunchasining o'zi ham nisbiydir. 100 yil oldin neologizm hisoblangan samolyot, uchuvchi, televideniya, nishonlangan atom kabi so'zlar jamiyat, fan va texnika, shu bilan bir qatorda, tilning rivojlanishi natijasida hozirgi kunda neologizmlar hisoblanmaydi.

Muloqot va so'zlashuv jarayoniga yangi so'zlarning, neologizmlarning kirib kelishi va neologizmlar hosil qilishning bir nechta usullari mavjud:

1. Tilda mavjud bo'lgan so'z yasovchi vositalar (sufiks, prefiks, qo'shma so'z) orqali yangi so'z yasash.

Neologizmlarni yasashda qo'llaniladigan mahsulli sufikslardan -ian, - ation ni misol qilish mumkin:

- ship: craftmanship – mahorat, mohirlik showmanship – insonlarni qiziqтира olish, zavqlantira olish qobiliyati

- dom: bangdom - uyushgan banditlik bogdom - hayotdagi to'siq

- ize: itemize - ro'yxat tuzmoq institutionalize - qonunlashtirmoq

unionize - kasaba uyushmasi a'zosi bo'lmoq Ingliz tilida so'z qo'shish yo'li bilan neologizmlar yasalishi ham mumkin.

Masalan, know-how texnikani bilish, tushunish break-down buzilib qolish
break-up parchalanish, buzilib ketish shut- down yopilish brain-
drain ziyoli va aqlli insonlarning mamlakatdan chiqib ketishi

2. So'zga yangi ma'no yuklash.

Bunda bir so'zning o'z ma'nosida tashqari boshqa bir anglashilgan ma'nosi qo'llaniladi. Ammo ularda ma'lum bir ma'noda o'xshashlik sezilib turadi. Masalan,

Egg (tuxum) - aviabomba

Summit (baland nuqta) - oliy darajadagi uchrashuv

Domino (o'yin) - organlarni almashtirish bo'yicha operatsiya

Yana bir so'zni tahlil etadigan bo'lsak, colour-blind ushbu so'z dastavval ranglarni ajrata olmaydigan daltonik insonni anglatgan bo'lsa, XX asrining oxirgi choragida uning ma'nosi odamlarni irqiga, millatiga qarab ajratmaydigan insonni bildiradigan so'zga aylandi.

3. Boshqa tillardan so'z olish.

Ingliz tili boshqa tillarga so'z beruvchi til sifatida ajralib turadi, ayniqsa, biznes va moliya sohasida (masalan, lag - kechikish, marketing, dealer). Ammo kam holatlarda boshqa tillardan so'z olish yo'li bilan ingliz tilida neologizmlar hosil bo'ladi. Bunday so'zlardan bir qanchasi ingliz tili hujjatlaridan joy egallagan. khozraschot – sel-supporting running (moliyaviy jihatdan o'zilni o'zi ta'minlash) perestroika – Russian gai-ge – Chinese tranche(fransuzcha) – kredit qismi, ulush

4. Qisqartmalar orqali yangi so'z yasash.

Abbreviatura qisqartmalar. Masalan, PC [pi:si] - personal computer (shaxsiy kompyuter)

Akronim – so'zga o'xshab o'qiladigan qisqartmalar.

ALGOL (Algorithmic Language)

LISP (List Processing)

Shuningdek, so'z yoki so'z birikmasini qisqartirish yo'li bilan tez-tez ingliz tilida neologizmlar yasalib turadi. Bunday so'zlar akronim hisoblanadi, ammo qisqartma sifatida qaralmasligi mumkin:

scuba - self-contained underwater breathing aratus.

radar - radio detecting and ranging

Qisqartirishning turlari:

1) harflab qisqartish; 2) bo'g'inlab qisqartirish.

Benelux - Belgium, Netherland, Luxemburg

Hi-Fi - High Fidelity (ishonch)

3) harf, bo'g'in, raqam va so'zlardan iborat qisqartmalar

mesoeconomic – medium-sized economic (macroeconomic va microeconomic so'zlaridan kelib chiqqan)

stagflation – stagnation va inflation so'zlaridan kelib chiqqan (harakatsizlik)

5. Konversiya.

Bunda bir so'z turkumi orqali boshqa bir so'z turkumi yasash orqali yangi so'z hosil qilinadi.

The gap is to be bridged in the near future.

bridge- ko'prik(ot so'z turkumidan fe'l yasalmogda).

6. Metafora va frazali birliklar bilan neologizm hosil qilish.

Dead-cut bounce - (so'zma-so'z tarjimasini o'lgan mushukning oyoq bilan tushishi)

Birja bozorida aksiyalar narxini vaqtincha yolg'ondan tiklash.

Dutch-bargain - gollandcha kelishuv.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hayot tarzining o'zgarishi, texnek yangiliklar hamda ilm-fan yutuqlari sababli juda ko'p yangi tushunchalar paydo bo'lib bormogda. Muloqotda insonlar undan foydalanishi esa so'zlarning ma'nosini anglash hamda ularni xorijiy tillarga tarjima qilish muammolarini ham hal qilish zarur. Negaki har bir tushuncha va so'zning o'z mazmun-mohiyati mavjud hamda uni to'g'ri talqin qilish kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мўминов О., Қўлдошева., ҲошимовЎ. Инглиз тили дарслиги (English for Translators) – Тошкент, “Шарқ” нашриёти, 2005.

2. Muminov O. A Guide to Simultaneous Translation – Tashkent, 2005.

3. Shavqiyeva M.S. Hozirgi o'zbek tili sintaktik aloqalarining lingvistik tahlili // Innovative development in educational activities – 2023. – T.2. – № 12 – C.128-132.

4. Shavqiyeva M.S. Sintaktik aloqalar hamda ularning lingvistik tahlili // Innovative development in educational activities – 2023. – T.2. – № 12 – C.124-127.

5. Shodiyev S.E. Bio-social need to the study of lexical meaning // Journal of Positive School Psychology – 2022. – T 6, №. 9 – C. 4771-4777.

6. Absamadova M.I. The Impact of Diplomatic Language on International Relations: A Comprehensive A Analysis // International Journal of Formal Education – 2024. – T.3. – № 5 – C.299-302.

7. Ibayev A.J. Comparative analysis of the derivation of simple sentences in English and Uzbek// International Journal for Research in Applied Science & Engineering Technology (IJRASET) ISSN: 2321-9653; Volume 10 Issue IV Apr 2022. –P. 2146-2150. (SJ Impact Factor: 7.538).

8. Jamshed, Mirzoyev. "Communicative aspect of teaching English as a specialty." The role of science and innovation in the modern world 2.4 (2023): 123-129.

9. Bakiyev F.J., & Shavqiyeva M.S. (2024). Neologizmlar va ularni tarjima qilish masalalari // Innovative development in educational activities – 2023. – T.3. – № 3 – C.318-321.